

NUROTA VOHASI AHOLISINING AN'ANAVIY CHORVACHILIGI

Abdiyev Erali Jo'raboy o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti Tarix fakulteti magistranti
eraliabdiyev3@gmail.com

Toshmamatov Mexroj Xamid o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti Tarix fakulteti magistranti
mekhrojtoshmamatov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezizda O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan Nurota vohasi aholisining asosiy xo'jaliklaridan biri hisoblangan an'anaviy chorvachilikda tutgan o'rni tahlil qilinadi. Vohaning o'ziga xos tabiiy-geografik sharoiti, iqlimi va Nurota tizma tog'lari, Qizilqum sahrosining tutashgan hudud ekanligi bu yerda chorvachilikning yaylov-chorvachilik hamda yarim o'troq shakllari rivojlanishiga sabab bo'lgan. Hamda Nurota vohasining murakkab geografik hududda shakllangan chorvachilik madaniyati o'zining ko'p asrlik an'analari, ekologik moslashuvchanligi va o'ziga xos lokal xususiyatlari bilan ajralib turashi asoslab beriladi tatqiqotda.

Kalit so'zlar: Nurota vohasi, geografik o'rni, dehqonchilik, O'zbek-turkmanlar, an'anaviy chorvachilik, yaylov, qorako'lchilik, cho'ponlik madaniyati, jaydari qoramol, yilqichilik, mavsumiy boqish, tuyachilik, hunarmandchilik, urf-odatlar, irim-sirimlar, arab zotli yiqililar, Qizilqum sahrosi.

Annotation. This thesis analyzes the role of traditional livestock farming, considered one of the primary economic activities of the population in the Nurata oasis, located in the northwestern part of Uzbekistan. The unique natural-geographical conditions, the climate, and the fact that the region is a junction of the Nurata mountain range and the Kyzylkum desert have led to the development of pastoral and semi-sedentary forms of animal husbandry. Furthermore, the research substantiates that the livestock culture of the Nurata oasis, formed within a complex geographical environment, is distinguished by its centuries-old traditions, ecological adaptability, and unique local characteristics.

Keywords: Nurata oasis, geographical location, agriculture, Uzbek-Turkmens, traditional livestock farming, pasture, karakul breeding, shepherding culture, local cattle, horse breeding, seasonal grazing, camel breeding, handicrafts, customs and traditions, beliefs and superstitions, Arabian-breed horses, Kyzylkum Desert.

(14th international scientific and practical conference)

Аннотация. В данных тезисах анализируется роль традиционного животноводства, считающегося одной из основных отраслей хозяйства населения Нуратинского оазиса, расположенного в северо-западной части Узбекистана. Специфические природно-географические условия оазиса, его климат, а также тот факт, что он является зоной слияния горной цепи Нурата и пустыни Кызылкум, послужили причиной развития здесь пастбищного и полукочевого животноводства. Также в исследовании обосновывается, что культура животноводства Нуратинского оазиса, сформировавшаяся в сложных географических условиях, отличается своими многовековыми традициями, экологической адаптивностью и уникальными локальными особенностями.

Ключевые слова: Нуратинская оазис, географическое положение, земледелие, узбеко-туркмены, традиционное животноводство, пастбище, каракулеводство, культура чабанства, местный крупный рогатый скот, коневодство, сезонное выпасание, верблюдоводство, ремесленничество, обычаи и традиции, поверья и приметы, лошади арабской породы, пустыня Кызылкум.

Kirish. Nurota vohasi biz bilamiski o‘zining o‘ziga xos tabiiy-geografik joylashuvi bilan Markaziy Osiyoning qadimiy chorvachilik va dehqonchilik madaniyati tutashgan hududlaridan biri hisoblanadi. Bu hudud shimoldan Qizilqum sahrosi, janubdan esa Nurota tizma tog‘lari bilan o‘ralgan bo‘lib, bu geografik holat voaha aholisining xo‘jalik hayoti va etnomadaniy qiyofasini belgilab bergan. Nurota vohasi aholisining asosiy xo‘jaligi chorvachilik bo‘lgan. Vohada cho‘l, adir va tog‘ yaylovlarining mavjudligi unga yaxshi imkoniyat yaratgan. Qizilqumning cho‘l va yarim cho‘l yaylovlari ham chorvani, ayniqsa, qo‘ychilikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan. Nurotada ham XIX asr oxiri-XX asr boshlarida chorvachilik bilan yarim o‘troq o‘zbeklar, o‘zbek-turkmanlar shug‘ullangan. Ular xo‘jaligida qorako‘l qo‘ylar, otlar, tuyalar, qisman yirik shoxli molar va jaydari qoramollar, tuyalar bo‘lgan.

Voha aholisi qoramolni boqish uchun yaylovlar uchta turda bo‘lgan: Qishloq atrofida yaylovlarda mollar kunduzi boqishga mo‘ljallangan bo‘lsa va mollar bahorda va kech kuzda, qorsiz qishlarda boqishga mo‘ljallangan. Tog‘ yaylovlariga bahor mavsumi oxiri va yozda boqishga mo‘ljallangan sog‘in sigirlar chiqarilsa, qishloqdan sigiri bor ayllar navbat bilan borib qishga saryog‘, qurut tayyorlashgan. Cho‘l-tog‘ yaylovlari qishloqdan 8-10 km. va undan ham uzoq masofada joylashgan hududlarga olib chiqib ketilgan cho‘ponlar tomonidan Cho‘l yaylovlari, xususan, Qizilqum uchun suv manbalari–quduqlarning bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etgan. Quduqlar va cho‘l (dasht yaylovlari va ekinzorlar) boy chorvadorlarga qarashli

bo'lgan. Bu yerda suvning ahamiyati juda katta hisoblangan, chunki cho'ponlar qo'ylarini suvorish kerak hisoblangan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra Nurota tumanining umumiy maydoniga keladigan bo'lsak 6,5 ming km²ni tashkil etsa, shundan qariyb 80-85 foizi tabiiy yaylovlardan iborat hisoblanadi. Demak bu ko'rsatkich hududning nima sababdan aynan chorvachilikka ixtisoslashganini raqamlar bilan isbotlaydi. Vohada chorvachilikning vertikal zonal xususiyati aniq ko'zga tashlanadi. Masalan, qish mavsumida chorva mollari dengiz sathidan 400-600 metr balandlikdagi Qizilqum atrofi qumloqlarida (issiqlikni saqlash uchun) boqilsa, yozda esa 1500-2000 metr balandlikdagi Oqtog' va Qoratog'ning salqin yaylovlariga haydalganligini bilishimiz mumkin.

Nurota vohasida qorako'l qo'ylari boqish ming yildan ham ortiq tarixga ega hisoblanadi. Qorako'l zotli qo'ylarni boqish bilan turli o'zbek qabilalari: qorluq, turk, nayman, saroy, qatag'on, mang'it, olchin, qavchin, yabu, uch-urug', qipchoq, o'z, o'zbek-turkmanlar, o'rta osiyo arablari shug'ullangan. Ayrim qo'ychi boylar, o'zlari shahar, qishloqlarda yashasada cho'ponlarni yillab Qizilqum va unga tutash hududlarda qorako'l qo'ychilik bilan ham shug'ullanganlar. Qorako'l qo'ylari chidamliligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Qo'ylar alohida qo'raga bo'lib boqilgan. Tog'li qishloqlarda otarda o'rtacha 500-600 ta, cho'l hududlarda 600-1000 tacha qo'y bo'lgan. Otarda bitta cho'pon va uning yordamchisi bo'lgan. Qo'ylarning qo'zilashi (kuz va bahor) paytida qo'shimcha yordamchilar yollangan. Qo'ychilikda eng muhim palla fevral oxiri – mart boshida boshlanadigan qo'zilatish mavsumi hisoblangan. Qo'zilatish uchun maxsus maydonlar tayyorlanib unda maysaning o'sa boshlaganiga va suvning mavjudligiga etibor qaratilgan. Cho'ponlar tomonidan. Qo'ychilik qilishda yana bitta muhim masala bo'lgan bu qo'shqorlar tanlash hisoblangan, bu jarayon muhim tadbir hisoblangan. Odatda, har 100 ta qo'yga o'rtacha 3 tadan qo'chqor qoldirilib, ularni tajribali cho'ponlar boqishgan.

O'zbek-turkmanlar asosiy xo'jaligi lalimikor dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Mart oyida urug' sepgan turkmanlar otarlari, chorvasi bilan dashtga ko'chirilgan. Tog' daralarida shamolpana joylarda sovliq qo'ylarni qo'zilatish mavsumi o'tkazilgan. Aholi qozoqi qo'y turini boqqan. O'zbek turkmanlar faqat o'tovda yashashgan.

Yilqichilik ham yaxshi rivojlangan hisoblanadi, sababi chorvadorlar mavsumiy ko'chib yurishgan, shu voqtda og'ir yuklarni tashish uchun foydalanilgan. Otlarni go'shitidan iste'mol uchun, terisidan esa hunarmandchilikda charm olingan. Ayrim o'zbek qabilalari (qipchoq, nayman va boshqalar) biyaning sutidan qimiz ham olishgan. Otlarning mahsus turlari bo'lib, ular asosan ko'pkari va poyga musobaqali uchun maxsus boqilgan. Otlar Nurota vohasi aholisi uchun zarur hayvon bo'lgan.

Otlarning eng keng tarqalgan zotlari: qorabayir, loqay, turk va arab otlari boʻlgan. Nurota vohasida keng tarqalgan qorabayir zotli ot hisoblangan, ular koʻkragi kengligi, chopqirligi, baquvvatligi, chidamliligi, uzoq harakatlanishga qodirligi bilan ajralib turgan.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Nurota vohasi — Markaziy Osiyoning "tirik muzeyi" boʻlib, u yerda ming yillik qorakoʻlchilik anʼanalari, oʻziga xos yaylovlar boshqaruvi va oʻzbek qabilalarining anʼanaviy turmush tarzi oʻzaro uygʻunlashgan. Bu hudud oʻzining geografik joylashuvi (togʻ va choʻl orasida ekanligi) tufayli qadimiy chorvachilik madaniyatini eng sof shaklda saqlab qola olgan noyob mintaqadir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Tursunov S., Qobulov E. Oʻzbekistonda chorvachilik va dehqonchilik anʼanalari. – Toshkent: 2010.
2. Т.Ў.Салимов. Нурота ва нуроталиклар. Тошкент «Университет» 2019.
3. Boʻriyev O. Oʻzbekiston tarixi va madaniyati: Etnografik kuzatuvlar. – Toshkent: Fan, 1994.
4. Doniyorov A. Oʻzbekistonda chorvachilik madaniyati tarixi. (Nurota vohasidagi qadimiy chorvachilik anʼanalariga bagʻishlangan maqolalar).
5. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "Nurota", "Qorakoʻlchilik", "Qorabayir" maqolalari.
6. Zokirov Q. Z. Oʻzbekiston oʻsimliklar dunyosi. (Nurota tizmasi va Qizilqum yaylovlarining flora tarkibi haqida).
7. Dala tatqiqoti. Nurota tumani qishloqlari. 2026-y.